

ILMIY-PEDAGOGIK TADQIQOT METODLARINING PEDAGOGIKA SOHASIDA TUTGAN O'RNI

Tojiboyeva Muqaddasxon Raxmatjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7920305>

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika sohasida mavjud bo'lgan ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek, ushbu metodlarning ahamiyati va ularni pedagogika sohasida tutgan o'ni haqida so'z yuritilgan. Metodlarning muhim jihatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: metod, deskriptiv, perskriptiv, intervyu metodi, anketa metodi, respondent, fundamental, test metodi.

Metod (lotincha "metodos" - "yo'l") tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so'zi keng ma'noda muayyan maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi. Pedagogika sohasida shunday maxsus metodlar mavjudki, ular yordamida ta'lim-tarbiyaga jarayoniga oid muhim faktlar, turli pedagogik vaziyatlar mohiyatlari mohiyatlari, mexanizmlari va xususiyatlari o'rganiladi. Metodika-xususiy fanlarni o'qitish mazmuni, qonuniyatlari, tashkiliy shart-sharoitlarini tadqiq etadi.

Pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni hal etish bilan chegaralanmasdan xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika fani metodologiyasini aniq belgilab olish zaarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalarning ishonchligini ta'minlasa, boshqa tomondan metodologik bilimlarsiz pedagogik tadqiqotlarni samarali tashkil etish mumkin emasligini uqtiradi. Pedagogika o'z tadqiqot obyektiga va tadqiqot metodlariga ega. Ilmiy tadqiqot barcha fanlar kabi pedagogika fanini takomillashib borishiga, ayrim pedagogik hodisalarni tekshirishga hamda ularni to'g'ri hal etish yo'llarini aniqlashga yordam beradi. Pedagogik muammolarni tadqiq etish adabiyotlarni o'rganishdan boshlanadi. O'rganiladigan hujjatlar va manbalarga xalq maorifiga aloqador hujjatlar kiradi. Shu bilan birga, pedagogik matbuot materiallari, pedagogika faniga oid bo'lgan tarixiy-pedagogik adabiyotlar, arxiv hujjatlari, darsliklar, o'quv-metodik ishlanmalar ham kiradi. Adabiyotlarni o'rganish metodi muammolarning qay tomonlari yaxshi ochilganligi hamda qaysi masalalari hal etilmagani kabi jarayonlarni bilish imkoniyatini beradi.

Pedagogik tadqiqot bosqichlari quyidagilardan: ma'lumotlarni yig'ish, xulosalarni jamlash, tadqiqot bo'yicha miqdoriy va tahlil o'rtacha miqdoriy raqamlarni aniqlash, korrelyatsiya koeffitsiyenti, grafiklarni tuzish, xulosalarning to'g'riligini ta'minlovchi ma'lumotlarni yig'ish (buning uchun turli metodlar qo'llaniladi), ta'lim-tarbiya jarayoniga oid ishchi farazni ilgari surish, uni nazariy va amaliy jihatdan sinovdan o'tkazish maxsus metodikasini ishlab chiqarishdan iboratdir.

Pedagogika fani o'z mazmun-mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va nazariyalarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan uslublari bilan o'rganadi. Ilmiy tadqiqot uslublari deganda, yosh avlodni tarbiyalash, bilimni qilish va o'qitishning real jarayonlarga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, usullari va vositalari majmui tushuniladi. Ijodiy jarayonda bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqda. Metodologiya alohida fan sifatida 2 ta funksiyani bajaradi:

1. Deskriptiv (ifodalovchi)- obyektning nazariy jihatdan ifodalaydi ;
2. Perskriptiv (me'yorlovchi)- tadqiqotchi uchun aniq mo'ljal olishga shart-sharoit yaratadi.
Bu 2 vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini 2 guruhga ajratishni taqozo etadi.Ular:

1. Nazariy ;
2. Me'yoriy ;

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi ;
2. Suhbat metodi ;
3. Anketa metodi ;
4. Intervyu metodi ;
5. Test metodi ;
6. Pedagogik tahlil metodi ;
7. Bolalar ijodini o'rganish metodi ;
8. Pedagogik tajriba metodi ;
9. Matematik-statistik metod ;
10. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.

Pedagogik kuzatish metodini qo'llash jarayonida ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlarini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holati aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risida ma'lumotga ega bo'linadi.Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega.Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin.

Suhbat metodi pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi.Suhbat ta'lim jarayonida maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi.

Anketa metodi (fransuzcha- "tekshirish ") yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi.Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Respondent deganda, o'sha tajriba o'tkazilayotgan inson tushuniladi.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirishini ta'minlaydi.Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi.Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samaradorligini ta'minlaydi.

Test metodi respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma hamda malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Ilmiy-tadqiqot yoki ilmiy- tadqiqiy ishlar (ITI) maqsadi, tabiat yoki sanoat bilan bog'liqlik darajasi va ilmiy chuqurligiga ko'ra 3 asosiy turga ajraladi:

1. Fundamental (nazariy) tadqiqotlar- borliqdagi yangi qonunlarni ochishga, hodisalararo aloqalarni aniqlashga, yangi nazariya va tamoyillar yaratishga yo'naltiriladi.

2. Amaliy tadqiqotlar- ilmiy negiz ishlab chiqishga yo'naltiriladi.
3. Ishlanmalar- ulardan maqsad amaliy (yoki fundamental) tadqiqotlarning natijalaridan texnika, ishlab chiqarish texnologiyasining yangi turlarini barpo qilish yoki mavjud namunalarni takomillashtirish maqsadida foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogika sohasida ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlarining o'rne beqiyos. Metodlarning o'z vazifalari va muhim jihatlari mavjud. Shuni aytish joizki, har bir metod negizida amalga oshirilgan islohotlar pedagogika sohasiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.

References:

1. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva "Pedagogika nazariyasi". Toshkent-2008.
2. R.Mavlonova, N.Vohidova, N.Raxmonqulova "Pedagogika nazariyasi va tarixi". Toshkent-2010.
3. L.V.Peregudov, M.X.Saidov, D.Ye.Aliqulov "Ilmiy ijod metodologiyasi". Toshkent-2002.
4. B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti". Toshkent-2017.



INNOVATIVE
ACADEMY